

**BOSHLANG‘ICH SINFDA INGLIZ TILINI O‘QITISHNING
QIYINCHILIKLARI VA YUTUQLARI.***Abdullayeva Nigora Shavkatovna**Farg‘ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti, Amaliy ingliz tili bo‘limi, ingliz tili o‘qituvchisi.**Xolmatova Shahzoda Kamoliddin qizi**Farg‘ona davlat universitet, Ingliz tili va adabiyoti fakulteti 4-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatib borishning turli xil uslublari, ingliz tilini o‘qitishda duch keladigan qiyinchiliklar, o‘quvchilarni ingliz tilini bilish darajasini oshirishdagi asosiy yutuqlari va shuningdek yosh avlodlarga ingliz tilini o‘rganish qay darajda muhim ahamiyat kasb etilishi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, ingliz tili, o‘rganish, guess what!, prepare, studentbook, workbook, teacherbook, innovatsion, interfaol, bag‘rikenglik, exercise, activitie.

Bugungi kunda yurtimizda har sohada sezilarli darajada yangiliklar va rivojlanishlar deyarli jadal tarzda ko‘zga tashlanyapti desak mubolag`a bo`lmaydi. Jumladan har bir sohadagi izlanishlarda hamisha yangiliklar va innovatsiyalar olib kirilmoqda. Masalan, ta`lim sohasida ham ayniqsa chet tilini o‘rganish va o‘rgatish borasida ham sezilarli yutuqlarga guvohi bo`lamiz. Chet tili bilish ayniqsa ingliz tilini bilish hozirgi zamon talabi bo`lib qolgan desak ham xato bolmaydi. Chunki, ingliz tili ko`plab chet mamlakatlarning asosiy tili va dunyo tili bo`lib kelmoqda. Shuning uchun ham yosh avlodlarga tilni o‘rgatish ularni kelajakda har sohada ilm, iqtisod va turli yo`nalishlarda buyuk ishlarni boshlashlarining debochasi bo`lsa ajab emas. Maktablarda boshlang‘ich ta`lim o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatish bu tilni bilish va muloqat ko`nikmalarini rivojlantirishda asosiy ro`l o`ynaydi. Hozirda har bir sinf uchun boshlang‘ich ta`lim sinf o‘quvchilaridan tortib to yuqori sinf o‘quvchilarigacha bo`lgan o‘quvchilarga ingliz tili kitobi yangi nashri taqdim etilgan. 1-6- sinf o‘quvchilari “Guess What!”, 7-11-sinf o‘quvchilari “Prepare” studentbook, workbook darsliklaridan foydalanishyapti. O‘qituvchilar esa shu darsliklarning teacherbook kitobidan foydalanishyapti. Bu darsliklar har tomonlama o‘quvchilarga manzur kelyapti. E`tibor qaratadigan jihatimiz esa har bir mavzuga doir turli xil usullar yordamida ishlanadigan exerciselar va activitielar mavjud.

Boshlang‘ich ta`lim o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatishning ham o‘ziga yarasha qiyinchiliklari va yutuqlari bor.

Qiyinchiliklari:

- **Ingliz tilining cheklanganlik ta`siri-** bu asosiy muammolardan biri bo`lib, o`quvchilar faqat sinf xonalarida ya`ni 1 haftada 2 yoki 3 kun 45-minutdan dars mashg`uloti davomida ingliz tili bilan shug`ullana oladilar xolos. Bu esa tilni doimiy ravishda va izchil mashq qilmasdan turib, o`quvchilar ingliz tilining mazmunini tushunishda va so`zlardagi talaffuzlarni anniq va ravonlikni rivojlantirishda qiynalishi mumkin. Ayniqsa ular so`zlarni tushunib emas avtomatik ravishda yodlab oladilar.
- **Malakali o`qituvchilarining yetishmasligi** - besh qo`l barobar bo`lmaganidek ayrim hududlarimizda malakali ingliz tili o`qituvchilarining yetishmasligi yoki o`qituvchi bola turib unga malaka yetishmasligi juda achinarli. Bu borada hurmatli Prezidentimizning bu oqilona qarori «Biz raqobatdosh davlat qurishni o`z oldimizga maqsad qilib qo`ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliygoh bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat’iy talab har bir ta’lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim», — dedi Shavkat Mirziyoyev, yana bir kamchiligidan bartaraf etishga ko`mak beradi.
- **Boshlang`ich sinf o`quvchilarda til ko`nikmalarini shakillantirish** – har bir yosh o`quvchining o`ziga xos o`rganish ko`nikmasi shakllanga bo`ladi. Masalan bir bola eshitib turib yodda saqlay olsa boshqasi ko`rib tursa yodida qoladi. Shunday ekan har bir darslikda bu alohida inobatga olingen bo`lib har bir ko`nikmaga doir mashqlar berilgan. Lekin, boshlang`ich sinf o`quvchilari bir vaqtning o`zida tinglash, gapirish, o`qish va yozish kabi til ko`nikmalarini egallashda qiynalishi mumkin.

Yutuqlari:

- ✓ Til bilish darajasini oshirish – har bir chet tili pedagoglarning yaxshi ishlab chiqilgan ish rejalarini, turli xil interfaol o`yinlari va kerakli ko`rgazmali va zamonaviy texnologiyalarda foydalanib o`quvchilarining til ko`nikmalarini rivojlantirishga katta hissa qo`shishlari tafsizinga sazovordir.
- ✓ Har bir o`quvchining muloqat qobiliyatini kengaytirish – har bir o`quvchiga ingliz tilini o`qitish samarali muloqot ko`nikmasini beradi. Ya`ni, o`qituvchi o`quvchilarni ingliz tilida o`z fikrlarini ishonch bilan ifoda etishiga undashi, o`quvchilarni gapirish ko`nikmasini shakillantishga yordam beradi. Bu yutuq esa yoshlarning kelajakda o`z o`rnini topishga tayyorlaydi.
- ✓ Bag`rikenglikni oshirish – “Madaniyatlararo muloqot formulasi sabrlilik, bag`rikenglik hisoblanadi. Madaniyatlararo muloqotda ijtimoiy-madaniy xatolarga yo'l qo'ymaslik talab etiladi. Masalan, nemis xalqida, "Tee oder Kaffee?" ya'ni "choymi yoki kofemi" degan savolga ona tilimizda, - "Tee", "choy"- deb javob beramiz, lekin nemis tilida esa bunday javob tog'ri kelmaydi. Nemis tilida, "Bitte, Tee" ya'ni, "Marhamat, choy" deb javob beriladi. So'z

kishilarni muloqot orqali bir-biriga bog'laydi. Yangi materialni bir vaqtning o'zida barcha nutq faoliyati turlarida qo'llash natijasidamalaka va ko'nikma hosil qilinadi”[2.529] Shunday ekan har bir tilning o`z madaniyati bo`ladi, til esa ana shu madaniyatni o`rganishga ko`mak beradi. Dars davomida tilning madaniy elementlarini kiritish orqali o`quvchilarni dunyoqarashini oshiradi va bag`rikenglikni rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang`ich ta`lim o`quvchilariga tilni majburiy emas, qiziqarli inerfaol metodlarga boy mashg`ulotlar orqali dars o`tilishi, ularning kelajakda oladigan ilmlari uchun bir debocha bo`lishi mumkin. Biz pedagogmiz o`z kasbimizni fidoisi bo`lsakgina yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf qilsak shu bizning yutug`imiz bo`ladi. Har bir bola o`z salohiyatiga ega va bu salohiyatni rivojlantirish biz pedagoglarga bog`liqdir. Zero buyuk bobokalonimiz Mir Alisher Navoiy aytganlaridek: “Til bilgan-el biladi”

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/05/06/videoselector/>
2. Zayniddin Sanakulov va Bakhromjon Joraboyev “Chet tili o`qitish metodikasida zamonaviy metodlari” (2021) 529 page